



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2023- YIL
YANVAR-MAY**

2023-yilning yanvar-may oyida, Buxoro viloyatida jami **3 109,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari** bajarilib, oʼsish surʼati 2022-yilning yanvar-may oyiga nisbatan **101,1 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor

14,7

24,9

60,4

Yirik korxona va
tashkilotlar

Kichik korxona
va mikrofirmalar

Yillar kesimida soni

Bino va inshootlar qurish

1 435

Fuqarolik obyektlarini qurish

442

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

688

Hududlar kesimida

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 87,8 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'naliishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'naliishi 56,0 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 81,9 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'naliishi 17,2 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 127,4 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'naliishi 26,8 foiz ulushni va 83,7 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.06.2022- y.	01.06.2023- y.	
Buxoro viloyati	2 922	2 565	87,8
Buxoro shahri	941	796	84,6
Kogon shahri	130	107	82,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	81	77	95,1
Buxoro	228	180	78,9
Vobkent	123	118	95,9
G'ijduvon	198	144	72,7
Kogon	144	135	93,8
Qorako'l	108	111	102,8
Qorovulbozor	55	56	101,8
Peshko'	180	163	90,6
Romitan	254	241	94,9
Jondor	237	216	91,1
Shofirkon	243	221	90,9



**2023- yil 1- iuyn holatiga ko'ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalari ulushi, % da**




Buxoro sh. (31,0)



Romitan t. (9,4)



Shofirkon t. (8,6)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	3 109,8	455,6	1 879,1	775,1
Buxoro sh.	819,6	133,3	506,1	180,2
Kogon sh.	131,5	46,7	62,2	22,6
tumanlar:				
Olot	208,0	61,9	100,6	45,5
Buxoro	234,5	6,1	159,8	68,6
Vobkent	102,1	-	63,7	38,4
Gijduvon	225,8	-	143,3	82,5
Kogon	235,9	3,2	180,7	52,0
Qorako'l	156,5	2,3	116,1	38,1
Qorovulbozor	120,5	97,0	17,5	6,0
Peshko'	214,5	-	150,8	63,7
Romitan	288,4	90,0	117,0	81,4
Jondor	187,6	-	138,0	49,6
Shofirkon	184,9	15,1	123,3	46,5


2023- yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 455,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 86,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 2,6 % punktg'a kamayib, 14,7 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-may uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 80,5 % i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 77,9%), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,5% i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 41,0 %) ga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-may oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,4% i to'g'ri kelib, 2022- yilning ko'rsatkichiga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etgan holda 1 879,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da

60,4

2023-yil
yanvar-may

58,8

2022- yil
yanvar-may



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Kogon tumanida (180,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 76,6 %), Qorako'l tumanida (116,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 74,2 %) va Jondor tumanida (138,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 73,6 %) ga to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 24,9 % ni tashkil etdi yoki 775,1 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **186,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **2 923,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,0 %** va **94,0 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-may oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **53,5 %** i yoki **1 665,0** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

15,2%

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **254,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **15,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **758,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **45,6 %** ni tashkil etdi.

45,6 %

39,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **652,3** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **39,2 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	3 109,8	101,1	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	819,6	116,6	26,4
Kogon sh.	131,5	79,0	4,2
<i>tuman:</i>			
Olot	208,0	102,2	6,7
Buxoro	234,5	106,1	7,5
Vobkent	102,1	110,2	3,3
G'ijduvon	225,8	96,2	7,3
Kogon	235,9	106,8	7,6
Qorako'l	156,5	103,4	5,0
Qorovulbozor	120,5	61,2	3,9
Peshko'	214,5	106,4	6,9
Romitan	288,4	100,1	9,3
Jondor	187,6	92,5	6,0
Shofirkon	184,9	95,6	5,9



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,6 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,2 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,2 % punktga ko'payib, 57,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'payib, 36,7 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 31,9 % ni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 4,0 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 68,1 % (4,0 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish
tashkilotlari

2022-yil
yanvar-may




Kichik korxona
va mikrofirmalar

Norasmiy
sektor

2023-yil
yanvar-may

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % punktga kamaydi va 36,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 63,8 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	3 109,8	2 109,2	564,0	436,6
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	819,6	522,6	212,0	85,0
Kogon sh.	131,5	66,6	42,4	22,5
<i>tuman:</i>				
Olot	208,0	111,9	20,9	75,2
Buxoro	234,5	178,5	32,6	23,4
Vobkent	102,1	81,4	13,7	7,0
G'ijduvon	225,8	176,0	29,1	20,7
Kogon	235,9	150,5	56,2	29,2
Qorako'l	156,5	115,4	26,7	14,4
Qorovulbozor	120,5	29,2	6,5	84,8
Peshko'	214,5	161,9	30,6	22,0
Romitan	288,4	246,4	28,0	14,0
Jondor	187,6	139,9	28,2	19,5
Shofirkon	184,9	128,9	37,1	18,9



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-may uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1 544,7	99,4
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	2 828,2	114,4
Kogon sh.	2 060,5	77,3
<i>tuman:</i>		
Olot	2 019,1	100,7
Buxoro	1 338,2	104,5
Vobkent	698,8	108,5
G'ijduvon	710,8	94,5
Kogon	2 849,5	104,8
Qorako'l	921,1	102,0
Qorovulbozor	6 149,8	59,6
Peshko'	1 661,1	104,6
Romitan	1 932,9	98,3
Jondor	1 028,2	91,0
Shofirkon	1 002,4	94,3



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga
qurilish ishlari
2023- yil yanvar-may uchun**



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-may oylariida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 6 149,8 ming so'm (yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 59,6 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 2 849,5 ming so'm (yoki 104,8 %), Buxoro shahri – 2 828,2 ming so'm (yoki 114,4 %), Kogon shahri – 2 060,5 ming so'm (yoki 77,3 %) va Olot tumani – 2 019,1 ming so'm (yoki 100,7 %) egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**